

Kirish va Kiritma birliklarning gap va matnga aloqadorlik munosabatlari**Ernazarova Hilola**

Qo'qon DPI o'qituvchisi

Valijonova Zinnura**Holjo'rayeva Mohizar**

Qo'qon DPI talabalari

Annotatsiya. Til kishilarning o'zaro muloqotga kirishuvi va fikr almashuviga bo'lgan ehtiyoj natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Til paydo bo'lgandan keyin (bu olimlarning taxminicha, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yuz bergan) jamiyat tez rivojlana boshlagan jamiyat uchun, uning a'zolari bo'lmish insonlar uchun xizmat qiladi, shuning uchun til ijtimoiy hodisa hisoblanadi, ya'ni til yakka odamga emas, balki butun jamiyatga daxldor bo'lib, shu jamiyat a'zolari yordamida shakllantirilib, rivojlanib boradi.

Kalit so'zlar: Sintaksis, gap, matn, Kirish so'zlar, undalma, so'z birikmasi, gap bo'laklari.

Gap tarkibida ba'zan shunday so'zlar va so'z birikmalari hatto gaplar qo'llanadiki, ular gapning biror bo'lagi bilan grammatik jihatdan aloqaga kirishmaydi. Shu tufayli bunday so'z yoki so'z birikmalari gap bo'laklari hisoblanmaydi. Undalma, kirish so'z, kirish birikma va kiritma gap ana shunday xususiyatga ega.

So'zlovchining o'zi bayon qilgan fikriga qo'shimcha mulohazasini bildirgan gap kiritma gap deyiladi. Kiritma gap asosiy fikrni qo'shimcha izohlash, aniqlash, todirish uchun ishlatiladi va o'ziga aloqador bo'lmagan gapdan maxsus to'xtam bilan ajratiladi. Masalan: U bejirim tuflisi bilan yemi duk-duk bosib (bu duk-duklardan Qahramonning yuragi go'yo mix qoqilayotganday zirqirab ketdi) mashina tomon yurdi. (O.Yo.) Kiritma gaplar odatda qavs ichiga olinadi: O'sha yosh bolam (u ota- onasiz qolgan edi) boyga qarol qilib berishdi. Ayrim hollarda kiritma gap o'zi bilan aloqador bo'lgan gapdan tire bilan ajratiladi. Masalan: Universitet hovlisi—men hozirgina aylanib chiqdim— talabalar bilan gavjum bo'lib turibdi. So'zlovchining qo'shimcha fikrini alohida ta'kidlaydigan maxsus belgilar ham bo'lishi mumkin. Bu darak belgilari shaklida qo'yiladi. Masalan: "Avtor mana shu bachkana (?) munosabatlarning hammasini poetiklashtirib tasvir etadi."Nahot poyetiklashtirilgan (!) tasvir bachkana bo'lolsa. (M.N.)

Lingvopoetika – bu lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo'lib, badiiy asarlarda qo'llanilgan lisoniy birliklar: fonetik, morfemik, leksik va boshqalarning badiiyestetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o'rganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika tilshunoslikning badiiy nutqni o'rganuvchi bo'limidir. Lingvopoetik tahlilda badiiy matnda poetik aktualashgan til vositalarini aniqlash muhim tamoyillardan ekanligini alohida ta'kidlanadi, chunki —bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur qilish mumkin. Chindan ham, badiiy matnning estetik qimmatini bevosita belgilash va baholashda ayni shu tamoyil qulay va boshqa tamoyillar asosida ish ko'rishda ham zamin vazifasini bajarishi mumkin. Buning ustiga, mazkur tamoyil asosida lisoniy badiiyatni tasavvur qila olish boshlovchi tahlilchiga ham og'irlik tug'dirmaydi, chunki tahlil qilinadigan ob'yekt matndagi aniq til birliklaridir. Badiiy asar tilining lingvistik jihatdan tadqiq qilinishi bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Tilshunoslik sohasida yaqin vaqtlar ichida olib borilgan ko'plab tadqiqotlar aynan badiiy asar tilining leksiksemantik, morfologik, sintaktik, punktuasion, stilistik, progmatik, kognitiv yo'nalishlar asosida olib borildi.

Badiiy adabiyotda, ayniqsa she'riyatda undalma va kiritmalar shoir va asardagi lirik qahramonni xis-hayajon, emotsiya, vaziyat voqealarni kitobxon o'quvchi qalbi va ongiga ta'sirchan va tushunarli tarzda yetib borishi uchun juda yordam beruvchi sintaktik birliklar hisoblanadi. Gap tarkibida gapdan tashqari bo'laklar ham bo'lishi mumkin. Ularga undalmalar, kirish so'z va kiritmalar kiradi. Ular alohida ohang bilan talaffuz qilinadi, shuning uchun gapdan tinish belgilari bilan ajratilgan bo'ladi. Undalma so'zlovchining fikri qaratilgan shaxs yoki predmetni ko'rsatuvchi so'z yoki so'z birikmasidir. U yig'iq holda ham, yoyiq holda ham bo'la oladi. Masalan: Oyijon, sizni juda sog'indim! Aziz va mehribon do'stim! Seni tug'ilgan kuning bilan chin dildan qutlaymiz. Undalmalar kuchli undashni ifodalaganda, ular oldida his-hayajon undovlari ham qo'llanishi mumkin: Ey quyosh, nurlaringni ko'proq soch! Ba'zan undalmalar takrorlanib ham keladi, bu ham undashni kuchaytiradi: Qushlar, qushlar, hoy qushlar! Qanot qoqib kelinglar! Undalma faqat gapning boshidagina emas, gapning o'rtasida ham, oxirida ham kela oladi. Agar u gap ohirida kelsa, undan oldin, o'rtada kelsa, ikkala tomonidan vergul bilan ajratiladi. Masalan: So'zla, ko'zgujon, haqiqatni et bayon! Kirish so'z so'zlovchining o'zi bayon qilgan fikriga munosabatini bildiradi. Masalan: Yo'ldan adashdik, shekilli. Kirish so'zlar gapning turli qismlarida kela oladi. Ular hamisha gap bo'laklaridan vergul bilan ajratiladi. Masalan: Avvalo, bu erga yaxshi ishlov berish kerak. Shunda, shubhasiz, bu erdan yaxshi hosil olish mumkin. Kirish so'zlar inkor, tasdiq, ishonch, gumon, shodlik kabi ma'nolarni bildiradi. (Jadvalga qarang). Nutqda kiritma konstruktsiyalar ham mavjud. Bunda asosiy gapdagi fikrga qo'shimcha tariqasida yo'l-yo'lakay yangi dalil bayon qilinadi. Kiritma gaplarda kirish bo'lakka qaraganda mustaqillik sezilib turadi. Bunday gaplar gapga nutq momentida zaruriyat tufayli kutilmaganda birdan kiritilgani uchun ayrim bir 137 ohang bilan aytiladi va alohida tinish belgilari, ko'pincha qavs bilan ajratiladi. Kiritma gaplar gap boshida kela olmaydi. Ular, odatda, gapning o'rtasida keladi va ikki tomonidan qavsga olinadi. Kiritmalar so'z, so'z birikmasi va gap shaklida kela oladi. Masalan: Otam (o'gay) meni yoqtirmasdi. Yalpiz (cho'l yalpizi emas) ovqatga yaxshi ta'm beradi. O'rmondan (u yerda yirtqich hayvonlar bor edi) bo'kirgan va uligan ovozlari eshitildi. So'zlovchining asosiy fikr ichida yo'l - yo'lakay aytilgan fikrini anglatuvchi gap kiritma gap deyiladi. Kiritma gap o'zi kiritilgan gapning biror bo'lagiga mazmunan aloqador bo'lib, maxsus pauza bilan ajratiladi. Masalan: Nima uchundir Ahm ad yuragida ayriliq jafosi, achinish sezmi adi (bu his keyin uning yuragini o'rtaydi). (F.Musajonov). Kiritma gap ko'pincha qavs ichida beriladi: Hay, avtmochi, Ovim kelgan ekanlar (u «Oyim» deb Humayrabonuni ko'zda tutardi). (J.Abdullaxonov). Ba'zan esa u asosiy gapdan tire orqali ajratiladi: Shunday qilib, Asad va Samad o'g'lining ismi shunday ekan - bizning yo' 7 uchastkamizda qolishdi. (CH.Aytmatov).

Tilimizdagi kiritmalar umumlashtiriladigan birliklar juda katta uslubiy-ekspressiv-emotsional imkoniyatlarga ega. Kiritmalar so'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikriga munosabati (ishonchi, gunoni, tasdig'i, inkori va h.), fikrning birovga nisbatlanishi (mansubligi, aloqadorligi), o'z fikri tarkibiy qismlarining ahamiyatlilik darajasi (birinchidan, ikkinchidan va h.), fikri va uning tarkibiy qismlariga doir bayon etadigan qo'shimcha axboroti yoki izohi kabi rang-barang ma'nolarni ifodalaydi. Kiritmalar so'zlovchining aytayotgan fikriga munosabatini ifodalaganligi uchun rasmiy uslubda deyarli qo'llanmaydi. Kiritmalar alohida so'z (*afsuski, sizningcha, aytishlaricha* kabi), so'z birikmasi (*gapning ochig'i, dangalini aytganda, so'zning qisqasi* kabi), gaplar (*rostini aytsam, o'ylab ko'rsam, buni qarang* kabi) yoki undan katta birliklar shaklida bo'lishi mumkin. Kiritmalar gapning, xususan, matnning umumiy mazmuniga daxldor bo'lsa-da, gapdagi biror bo'lak bilan tobe-hokimlik aloqasiga

kirmaydi, shuning uchun ular gapdagi boshqa bo`laklardan asosan vergul, tire, ba'zan qavslar bilan, talaffuzda esa kichik to`xtamlar bilan ajratiladi. Tilimizdagi kiritmalar deb umumlashtiriladigan birliklar so'zlovchining bayon qilinayotgan fikrga qo'shimcha izohi, to'ldiruchi ma'lumotini ifodalaydi. Ular nutqning aniqligi va to'liqligini ta'minlaydigan muhim vositalar sifatida nutqning deyarli barcha uslublarida qo'llanadi. Ammo badiiy va publitsistik uslublarda qahramonlarni xarakterini ochish, uning nutqini individuallashtirishdagi muayyan holatlarni izohlash, fikr ifodalashning o'ziga xos usuli kabi vazifalarni ham bajaradi. Kiritmalar ham barcha bo`laklar singari soda va murakkab bo'ladi. **Sodda kiritmalar** so`zlar va so`z-gaplar bilan, **murakkab kiritmalar** esa so`z birikmasi, kengaygan birikma va gaplar bilan ifodalanadi. So`z birikmasi va gap shakllarida kelgan kiritmalar ko'pincha qavslar bilan asosiy gapdan ajratiladi: *Ijobatni olgandan keyin yuqorida mazkur Toshkent atroflari bir majlis qurib, o'tirishga Normuhammad qushbegi (Toshkent hokimi)ni ham chaqiradilar.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Газизов Р. А., Мурясов Р. З. Лингвокультурология и современная лексикография. 2016.. №
2. Маслова В.А. Лингвокультурология.–М.: 2001
3. M.YO'LDOSHEV, S.MUHAMEDOVA, M.SAPARNIYAZOVA MATN LINGVISTIKASI T 2021
4. Yigitaliyeva, S. (2023). KOGNITIV TILSHUNOSLIK VA UNDA KONSEPT TUSHUNCHASINING IFODALANISH. *Scienceweb academic papers collection.*
5. Yigitaliyeva, S. (2022). O'zbek tilida yaxshilik konsepti va uning xalq maqollarida ifodalanish xususiyatlari. *Qo'qon DPI. Ilmiy habarlar.*
6. Yigitaliyeva, S. (2021). Linguistic analysis the concept of GOODNESS. *Scienceweb academic papers collection.*
7. Isog'aliyevna, Y. S. (2023). Boshlang'ich sinflarda mustaqil so'z turkumlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati. *Conferencea*, 16-21.
8. Yigitaliyeva, S. (2023). TUSHUNCHA KOGNITIV LINGVISTIKANING ASOSIY BIRLIGI SIFATIDA. *XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI-6/4-2023.*
9. Tursunaliyevna, A. M. (2023, May). OMONIMLAR VA SUN'IY INTELLEKT. In *International Congress on Models and methods in Modern Investigations* (pp. 48-51).
10. Abdurahmanova, M. T. (2023). OMONIMLARNI FARQLASH USULLARINING SUN'IY INTELLEKT VA MASHINA TARJIMASIDAGI O'RNI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 241-248.
11. Abdurahmanova, M., & Olimova, M. (2023). MORFOLOGIK ANALIZATOR XUSUSIDA. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
12. Tursunaliyevna, A. M., & Azizaxon, R. (2022). TILSHUNOSLIKDA KOGNITIV YO'NALISHLAR. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA*, 1(2), 117-123.